



"TASDIQLAYMAN"

Termiz davlat universiteti

rektori

A.Toshqulov

2025-yil

01

08

Termiz davlat universitetida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-son qarori bilan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizomining 15-bandiga muvofiq "Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi bo'yicha

SAVOLLAR RO'YXATI

1. Kutubxona nima va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Kutubxona fondini shakllantirishda qanday mezonlarga amal qilinadi?
3. Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
4. Axborot madaniyati tushunchasini qanday tushunasiz?
5. Kutubxonadagi xizmat turlarini sanab bering va ularning farqlarini tushuntiring.
6. Axborot-resurs markazi bilan Axborot-kutubxona markazi o'rtasidagi farq nimada?
7. Zamonaviy kutubxonada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qanday ishlatiladi?
8. Elektron katalog va an'anaviy katalog o'rtasidagi farqlar haqida nimalarni bilasiz?
9. Kutubxonachilik etikasi deganda nimani tushunasiz? Misol keltiring.
10. Foydalanuvchi bilan muloqotda qanday psixologik yondashuvlar muhim?
11. Kutubxonada kitoblarni joylashtirish qanday tizimlar asosida amalga oshiriladi?
(masalan, KBK, UO'K)
12. Kutubxona ishini takomillashtirish bo'yicha qanday taklif bera olasiz?
13. Bibliografik axborot nima va uni foydalanuvchiga qanday taqdim etasiz?
14. Siz kutubxonachi sifatida qanday yangi xizmat turini joriy qilgan bo'lardingiz?
15. Kutubxonaning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni haqida fikringiz qanday?
16. O'zbekiston Respublikasining "Kutubxona ishi to'g'risida"gi qonuni asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
17. Kutubxonada mualliflik huquqlarini himoya qilish bo'yicha qanday qonuniy me'yorlar amal qiladi?
18. Kutubxona fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilovchi qonunlar qaysilar?
19. Kutubxonachilik sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun qanday qonun-qoidalar mavjud?
20. Elektron kutubxonalar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunlar va hujjatlar qaysilar?
21. O'zbekiston Milliy kutubxonasi qayerda joylashgan?

22. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona haqida nima bilasiz?
23. O'zbekistonda yana qaysi yirik kutubxonalar mavjud?
24. Jahondagi eng qadimiy kutubxonalardan biri qaysi?
25. Aleksandriya kutubxonasi haqida nima bilasiz?
26. Misr kutubxonasi qanday ahamiyatga ega?
27. Britaniya kutubxonasi qayerda joylashgan va uning xususiyati nimada?
28. Kongress kutubxonasi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
29. Fransiyadagi eng mashhur kutubxona qaysi?
30. Qaysi kutubxona dunyodagi eng katta elektron fondga ega?
31. O'zbekiston Respublikasining kutubxonachilik faoliyatiga oid asosiy qonunlarini bilasizmi?
32. "Axborot erkinligi to'g'risida"gi qonun kutubxonalar faoliyatiga qanday ta'sir qiladi?
33. Kutubxonada qanday innovatsion loyihalar amalga oshirilishi mumkin?
34. Kutubxonadagi ichki tartib-qoidalarni kim belgilaydi?
35. Kutubxonachilik sohasini tanlashingizga nima sabab bo'ldi?
36. Kutubxonachilikning asosiy vazifalari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
37. Kitoblarga ishlov berishning bosqichlari qanday?
38. Kitobxonlarni jalb qilish uchun samarali usullar qaysilar?
39. Qaysi xorijiy kutubxonalarning tajribasini o'rgangansiz?
40. Kutubxonalarda kasbiy etika nima va uning asosiy tamoyillari qanday?
41. Kutubxonalarda mijozlarga nisbatan qanday axloqiy me'yorlar amal qiladi?
42. Siz o'qigan kutubxonachilikka oid eng foydali adabiyot qaysi edi?
43. Kitob tanlashda foydalanuvchiga maslahat berish jarayonini tushuntiring.
44. Kasbiy muloqotda samimiylik va hurmat qanday ahamiyatga ega?
45. Kutubxonachilar uchun xorijiy tillarni bilish qay darajada muhim?
46. Siz foydalanuvchilarga qanday xizmat turlarini ko'rsatasiz?
47. Yangi foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish tartibini tushuntiring.
48. Eng yosh va eng keksa foydalanuvchilarga qanday xizmat ko'rsatish yondashuvlaringiz bor?
49. Foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qanday aniqlaysiz?
50. Sizningcha, kutubxonada madaniy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati qanday?
51. Kutubxonada qanday axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanasiz?

52. Kutubxonalarda raqamlashtirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
53. Kutubxona foydalanuvchilari uchun elektron resurslarga kirishni qanday tashkil etish mumkin?
54. Kutubxonalarda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari qanday ishlaydi?
55. Kutubxonalarda axborot qidirish tizimlarining afzalliklari nimalardan iborat?
56. Zamonaviy kutubxonachilikda qanday tendensiyalar mavjud?
57. Kutubxonani raqamlashtirish bo'yicha qanday takliflaringiz bor?
58. Sizningcha, kutubxona sohasini qanday rivojlantirish mumkin?
59. Kutubxonachilik sohasida xalqaro tajriba bilan tanishmisiz?
60. Raqobatbardosh kutubxonachi bo'lish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?

Kafedra mudiri

Ma'sul kotib



M.Mirzayev

N.Achilov